

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MERO SINI O'RGANISH MASALALARI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

OCHILDI QO'YSUN TAXMISLARIDA NAVOIY IJODIGA IZDOSHLIK

Sevara FAYZULLAYEVA

Shahrisabz davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini

1-kurs tayanch doktoronti

fayzullayevasevara91@gmail.com

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14811617>

Annotatsiya: Ushbu maqola bugungi zamonaviy she'riyatimizda Navoiy ijodiga izdoshlik xususida bo'lib, shoir Ochildi Qo'ysunning Navoiy g'azallariga yozgan muxammaslari haqida so'z boradi. Iqtidorli shoir Ochildi Qo'ysun ijodidagi muxammas janrining salmoqli qismi Navoiy g'azallariga bog'langan. Biz bu muxammaslarda shoirning Navoiyga bo'lgan hurmat, ehtiromi va muhabbatini, aruz vazni talablariga javob bera oladiga nozikta'b shoir ekanligini guvohi bo'lamiz.

Kalit so'zlar: an'ana, izdoshlik, g'azal, taxmis, muxammas, obrazlilik, falsafiy mazmun, oshiq, ma'shuqa.

Annotation: This article is about the following of Navoi's work in our modern poetry, and it will talk about the mukhammas written by the poet Ochildi Koysun to Navoi's ghazals. A significant part of the mukhamma genre in the work of the talented poet Ochildi Koysun is connected to Navoi's ghazals. In these mukhammas, we witness the poet's respect, reverence and love for Navoi, and that he is a poet with a delicate sense of humor who can meet the requirements of the aruz verse.

Keywords: tradition, tradition, ghazal, takhmis, muhammas, imagery, philosophical content, lover, mistress.

Аннотация: В статье рассматривается творчество Навои в нашей современной поэзии, а также рассматриваются мухаммы, написанные поэтом Ачилди Койсуном к газелям Навои. Значительная часть своеобразного жанра в творчестве талантливого поэта Очильды Койсуна связана с газелями Навои. В этих стихах мы становимся свидетелями уважения, восхищения и любви поэта к Навои, его умения соответствовать требованиям поэтического размера.

Ключевые слова: традиция, традиция, газель, тахмис, муhammas, образность, философское содержание

Sharq adabiyoti an'analar zamiridagi rivojlangan adabiyotdir. Mumtoz adabiyotimiz tarixiy taraqqiyot jarayonida adabiy an'analardan oziqlangan, Sharqning buyuk ijodkorlari ijodidan ilhomlangan. Turkiy adabiyotning sultonı Alisher Navoiy ham o'z davrida ijod ahllariga homiy, rahnama, shaxsiy va ijodiy barkamollikda ibrat bo'lgan bo'lsa, keyingi davr adabiyotiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Turkiy tildagi adabiyotning rivojida Alisher Navoiy yaratgan lirik asarlar, dostonlar va nasriy asarlar adabiy ta'sir va ilhom manbai bo'lib xizmat qildi. Mumtoz adabiyotimizdagi an'analardan biri vorislik va izdoshlikdir. Ko'p asrlik tajriba shuni ko'rsatadiki, she'riyatdagi izdoshlik an'anani ijodiy davom ettirish va qayta yaratishga qaratilgan.

Zamonaviy she'riyatimizda ham mumtoz adabiyotimizdagi an'analar davom etib kelmoqda. Biz buni muxammas janri misolida ham ko'rishimiz mumkin. XX-XXI asr she'riyatida mumtoz adabiyotimizdagi g'azallarga taxmis bog'lash an'anasi ko'pgina

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

shoirlarimiz ijodida davom etib kelayotganini guvohi bo‘lyapmiz. Ular orasida Urgut adabiy muhitining iste’dodli shoirlaridan Ochildi Qo‘ysun (Ochildi Azimmurodov)ning barakali ijodi diqqatga sazovordir.

Shoir Ochildi Qo‘ysun bugungi kun zamonaviy she’riyatimizda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan, ijodida turli mavzularidagi she’rlari bilan ixosmandlari qalbidan joy olib kelmoqdadir. Bugungi kunda shoir ijodidagi o‘ziga xoslik uning mumtoz adabiy an’analaramizni davom ettirgan holda, aruz vanida qalam tebratib she’rlar yozayotganida o‘z tasdig‘ini ko‘rsatmoqda. Shoir Ochildi Qo‘ysun qalamiga mansub muxammaslar navoiyshunos olim, filologiya fanlari nomzodi, dotsent Ahadxon Muhammadiyev muharrirligida “Yuz taxmis” sarlavhasi ostida kitob nashr ettirilib badiiy so‘z ixlosmandlariga taqdim etildi. Ushbu kitobda shoirlarning mumtoz shoirlarimiz ijodiga va bugungi kunda zamonaviy she’riyatimizda ijod qilayotgan shoirlarimiz g‘azallariga bog‘langan taxmislari to‘plangan. Ochildi Qo‘ysun taxmislari ichida hazrat Alisher Navoiy g‘azallariga bog‘langanlari son jihatdan salmoqli o‘rinda turadi. Shoir Navoiy g‘azallariga bog‘langan taxmislariда o‘zining poetik mahoratini namoyon etib, Navoiy she’riyati ixlosmandi ekanligini isbotlaydi. Shoir janr talablarini chuqur o‘zlashtirgan holda ijod qiladi. Eng avvalo, aruz vazni qoidalariga to‘la riosa etishga intiladi. Ayniqsa, taxmislari asos g‘azallarga shaklan va mazmunan juda mosligi, yangi tashbehtar, badiiy unsurlar va teran falsafiy mazmun va mushohadaga egaligi bilan alohida ajralib turadi.

Ochildi Qo‘ysunning “100 taxmis” sarlavhali kitobiga kiritilgan Navoiyning “Favoyid ul-kibar” devonidan joy olgan “Aylab” radifli g‘azaliga bitgan taxmisi ushbu janrning mukkammal namunasi deya e’tirof etishimiz mumkin. Taxmis bitishning asosiy shartlaridan biri shundan iboratki she‘r asliyatiga qaraganda mazmunliroq, obrazliroq bo‘lishi kerak. Biz quyidagi taxmisda buning yaqqol guvohi bo‘lamiz. Taxmis quyidagi band bilan boshlanadi:

Ajab toleki, vasfin el deyur har dam xitob aylab,
Taxayyul yodin o‘ynar lahza-lahza pechu tob aylab,
Bo‘lurlar mo‘tabar ahli raqam holim kitob aylab,
Tun oqshom keldi kulbam sari ul gulruh shitob aylab,
Xiromi suratidin gul uza xaydin gulob aylab.

Taxmisda muallif qo‘sghan misralar shaklan ham, mazmunan ham Navoiy g‘azalining baytlariga hamohangligini ko‘rishimiz mumkin. G‘azal aruzning hazaji musammani solim (mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun) vaznida yozilgan, taxmis misralari ham aynan shu vaznda yozilgan. Navoiy g‘azalidagi lirik qahramon go‘zal va maftunkor, oshiqqa sadoqatli ma’shuqa. Taxmisda ham g‘azalda berilgan ma’shuqanining portreti bilan oshiq ruhiyati uyg‘unlikda tasvirlangan. G‘azal voqeaband

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

bo‘lib, taxmis misralarida ham voqeabandlik davom etib g‘azalning umumiylarini mazmuni to‘ldirib borilgan.

Ko‘rib qaddin hijolatdin chamanda bosh egar safsar,
Sinib savdosi, tark aylar do‘konin mushk ila anbar,
Chiday olmay ko‘zin nuriga yuz yopqay necha axtar,
Chekib mujgonni shabravlar kibi jon qasdig‘a xanjar,
Beliga zulfi anbarboridan mushkin tanob aylab.

Taxmisning yuqoridagi ikkinchi bandida shoir safsar gul ma’shuqaning qaddini ko‘rib hijolatdan bosh egishini tasvirlaydi va bu orqali tashxis badiiy san’atini yuzaga keltiradi. Ma’shuqa ko‘z nuriga yulduzlar ham chiday olmay yuzini yopgani, kipriklarini xuddi tun qaroqchilariday oshiq qasdig‘a xanjar qilgani, mushkday qora, anbar hidini taratuvchi zulfini beliga o‘rab olgan ma’shuqa tasviri g‘azal misralari va taxmis misralari o‘rtasida mazmunan yaxlitlikni tashkil etgan.

Dedi: bo‘yla jafokash oshiqim, mensiz nechukdursan?
Tinem bilmas nidokash oshiqim mensiz nechukdursan?
Go‘yo bulbul navokash oshiqim mensiz nechukdursan?
Ki: ey zori balokash oshiqim mensiz nechuktursen?
Men o‘ldum lolu aytal olmadim mayli javob aylab.

Taxmisning to‘rtinchi bandida ma’shuqa oshiqqa murojaat qilib uning holini so‘raydi va band misralari so‘roq ohangi bilan tugaydi. Shoir taxmis misralaridagi jafokash, nidokash, navokash qofiyadosh so‘zleri g‘azal misrasidagi balokash so‘zi bilan o‘zaro ohangdosh, qofiyadosh bo‘lib kelgan. G‘azal to‘qqiz baytdan iborat bo‘lib shoir g‘azalning yetti baytiga muxammas bog‘lagan. G‘azal misralari va taxmis misralari bir-biri bilan uyg‘unlikni qilgan.

Navoiyning “Avvalg‘ilarg‘a o‘xshamas” radifli g‘azali qariyb olti asrdan buyon xalq orasida mashhur, hofizlar tomonidan kuyga solingan g‘azallardan biridir. G‘azalga ko‘pgina shoirlarimiz taxmis bog‘lashgan bo‘lib, ular orasida shoir Ochildi Qo‘ysun taxmisi ham alohida ajralib turadi. Shoirning “Avvalg‘ilarg‘a o‘xshamas” muxammasida g‘azalning barcha baytlariga taxmis bog‘langan bo‘lib, taxmisning mukammal namunasi sifatida maydonga kelgan. Taxmis misralari quyidagi band bilan boshlanadi:

Turfa damdir ushbu dam, avvalg‘ilarg‘a o‘xshamas,
Dil g‘amidan ko‘zda nam avvalg‘ilarg‘a o‘xshamas,
Dilrabolar ahdi ham avvalg‘ilarg‘a o‘xshamas,
Ko‘nglum ichra dardu g‘am avvalg‘ilarg‘a o‘xshamas,
Kim ul oyning hajri ham avvalg‘ilarg‘a o‘xshamas.

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Asos bayt ham, taxmis uchligi ham aruzning ramali musammani mahzuf vaznida (foilotun,foilotun,foilotun,foilun) yozilgan. Shoир ham shakliy ham mazmuniy mutanosiblikka alohida e'tibor qaratib, bugungi zamon tasvirini taxmis misralariga ko'chirgan. G'azaldagi "avvalg'ilarg'a o'xshamas" radifi mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda shoир o'zi yashayotgan ijtimoiy hayotni qalamga oladi. Ya'ni turfa davrlar ichida ushbu davr bir-biriga o'xshamasligini, "dil g'amida ko'zda nam", "dilrabolar ahdi" ham avvalg'ilarg'a o'xshamasligini ta'kidlab, asos baytdagi shoирning lirik kechinmalariga uyg'un holda o'z his-tug'ularini ifoda etadi.

Bil Ochildi, komi nafsing jismu joning qasdikim,
Tutgil o'zni ushbu damda faqr elining pastikim,
Chin saodat toqiga yetgay muruvvat dastikim,
Ey Navoiy, qilma Jamshidu Faridun vasfikim,
Shoh G'oziyg'a karam avvalg'ilarg'a o'xshamas.

Maqta'da shoир nafsning yomonligi jonning qasdi bo'lishi mumkinligini, foniy dunyoda inson faqr ahlidan bo'lishi kerakligini, chin saodat cho'qqisiga muruvvat orqali yetish mumkinligini shoир o'ziga murojaati orqali bayon etadi. G'azal misralari va taxmis misralari fikr, g'oya va mazmun mutanosibligida ifoda etilgan.

Adabiyotlar ro'yxati

(Использованная литература/ References):

1. Alisher Navoiy. Favoyid ul kibar./. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. To'rtinchi tom.- T.:Fan, 1989.
2. Y.Is'hoqov.So'z san'ati so'zligi.Toshkent,O'zbekiston,2014.
3. Sayfullayevna, Fayzullayeva Sevara. "AVAZ O 'TAR TAXMISLARIDA NAVOIYGA IZDOSHLIK." FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIIYA JURNALI| JOURNAL OF SCIENCE, EDUCATION, CULTURE AND INNOVATION 2.6 (2023): 55-58.
4. O.Qo'ysun.Yuz taxmis.Toshkent,Sahhof,2023.